

**BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.02.2021.FM.101.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH NEGIZIDA
TUZILGAN BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**I.KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA
UNIVERSITETI**

QALANDAROV NAVRO'ZBEK OLIMBAEVICH

**QOVUSHOQ-ELASTIK TAYANCHLARGA O'RNATILGAN VALLNING
DINAMIKASI XUSUSIYATLARI VA DINAMIK KUCHLANISH-
DEFORMATSIYA HOLATI**

01.02.01-Nazariy mexanika

01.02.04-Deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasi

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавние автореферата диссертации доктора философии (PhD)
По техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Qalandarov Navro'zbek Olimbaevich

Qovushoq-elastik tayanchlarga o'rnatilgan valning dinamikasi xususiyatlari va
dinamik kuchlanish-deformatsiya holati.....3

Каландаров Наврузбек Олимбаевич

Особенности динамики вала установленного на вязкоупругих опорах и
напряженно-деформированного состояния.....21

Qalandarov Navruzbek Olimbayevich

Features of the dynamics of a shaft mounted on viscoelastic supports and the
stress-strain state.....39

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....44

**BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.02.2021.FM.101.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH NEGIZIDA
TUZILGAN BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**I.KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA
UNIVERSITETI**

QALANDAROV NAVRO'ZBEK OLIMBAEVICH

**QOVUSHOQ-ELASTIK TAYANCHLARGA O'RNATILGAN VALLNING
DINAMIKASI XUSUSIYATLARI VA DINAMIK KUCHLANISH-
DEFORMATSIYA HOLATI**

01.02.01-Nazariy mexanika

01.02.04-Deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasi

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida 2025-06-12 B2025.2.PhD/T3111 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) universitet veb-saytida ([www.https://bstu.uz/](https://bstu.uz/)) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar :

Teshaev Muxsin Xudoyberdievich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Nematov Erkinjon Hamroyevich
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Mavlanov Tulkin
texnika fanlari doktori, professor

Dusmatov Olimjon Musurmonovich
fizika matematika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat transport universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat texnika universiteti huzuridagi PhD.03/27.02.2021.FM.101.02 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil «21» noyabr soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 200100, Buxoro shahar, Q.Murtazoyev ko'chasi, 15. Tel.: (+99865) 223-78-84; faks: (+99865) 223-79-72, E-mail: bstu_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat texnika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№479 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: (200100, Buxoro shahri, Q.Murtazoyev ko'chasi, 15. Tel.: (+99895) 604-44-70).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «8» noyabr kuni tarqatildi.

(2025 yil «13» sentabrdagi № 2 raqamli reyestr bayonnomasi).



I.I. Safarov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash raisi, f.m.f.d, prof

R.A. Sabirova

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash ilmiy kotibi, f.-m.f.b.f.d. (PhD)

Z.I. Boltayev

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash qoshidagi bir martalik ilmiy seminar raisi, f.-m.f.d. (DSc), prof

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda tog'-kon, mashinasozlik, aviatsiya, kosmonavtika, oziq-ovqat va transport sanoatida tayanchlarga o'rnatilgan valli konstruksiyalar keng qo'llaniladi. Bunday sanoatlar dunyo mamlakatlarida ko'plab sohalarda faoliyat ko'rsatmoqda. Buning uchun valli konstruksiyalarni mustahkamligini materialning deformatsiyalanish xossalari hisobga olib, nazariy o'rganish metodikasi va algoritmini ishlab chiqish hamda mazkur jarayonlarda ishlaydigan valli konstruksiyalarni qo'llash yetakchi o'rinlardan birini egallamoqda. Dunyo miqyosida oziq-ovqat iste'molida eng asosiy mahsulot bu un hisoblanadi, bunda don maxsulotlarini qayta ishlash jarayonlarida energiya va resurstejamkor mashinalardan fodalanish hamda ularni amaliyotga joriy etishni taqozo etadi.

Jahonda qovushqoq-elastik tayanchlarga o'rnatilgan resurstejamkor valli konstruksiyalarning yangi avlodini yaratishda materiallarning reologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ilmiy-texnikaviy yechimlarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, xorijiy davlatlarning mashinasozlik va aviasozlik qurilmalardagi konstruktiv elementlarni mustahkamligini ta'minlash hamda vallarda hosil bo'ladigan dinamik kuchlanish va deformatsiyalarni ruxsat etilgan chegarada kamaytirish, zo'riqishlar yig'ilishining eng kichik holatda taqsimlanishini ta'minlovchi ishonchli hisoblash usullarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu sababli, o'rta va yuqori tezlikda ishlaydigan dastgohlarni har tomonlama o'rganish, ularda amalga oshiriladigan jarayonlarning umumiy qonuniyatlarini izlash, energiya va ishlash samaradorligini majburiy hisoblashga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda texnikaning turli sohalarida ishlatiladigan mexanik qurilmalarda tayanchlarga o'rnatilgan valli mexanizmlardan foydalanib energiya tejamkor texnika va texnologiyalarni ishlab chiqish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-maydagi PF-144-sonli "O'zbekiston Respublikasi seysmik xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"¹ gi Farmonida, jumladan, "Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida" PQ-4708-sonli 2020 yil 7 maydagi Prezident Qarorlarida vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, konstruksiyalarning tebranishlarini kamaytirishga imkon beruvchi parametrlarning barqarorligini ta'minlash, qovushqoq-elastiklik va kompozitlik xususiyatlarini hisobga olib titrashlarni bartaraf etish xususiyatlarini aniqlash metodikasini ishlab chiqish va rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 22 dekabrda "Sanoat tarmoqlari korxonalarining jismoniy ishdan chiqqan va ma'naviy eskirgan mashina-uskunalarini jadal yangilash, shuningdek, ishlab chiqarish harajatlarini kamaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-2692-sonli, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 iyuldagi "Qishloq xo'jaligi mashinasozligi sohasida ilmiy-texnikaviy bazasini yanada rivojlantirish chora

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 30-maydagi PF-144-son "O'zbekiston Respublikasining seysmik xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori

tadbirlari to'g'risidagi PQ-3117-sonli hamda 2020 yil 30 iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta'minlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4794-sonli va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 26 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 515-sonli qarorlarida hamda mazkur faoliyatga tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishiga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining II. "Energetika, energiya va resurstejamkorlik", IV. «Matematika, mexanika, inshootlar seysmodinamikasi va informatika» hamda XIV. «Seysmologiya, binolar va inshootlarning seysmik xavfsizligini qurilish» ustuvor yo'nalishlari doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Vallarni yangi konstruksiyalarini yaratish, ish samaradorligini oshirish, ularni texnik talablar bo'yicha mustahkamligi va deformatsiyaga bardoshligini oshirish hamda ularni strukturaviy, kinematik va dinamik hisoblash usullarini ishlab chiqish bo'yicha jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan, Lublin tabiiy fanlar universiteti (Polsha), N.V.Rudniskiy nomidagi Shimoliy-sharqiy Federal agrar tadqiqot markazi (Rossiya), Ghent universiteti (Belgiya), I.I.Polzunov nomidagi Altay davlat texnika universiteti, Orenburg davlat universiteti, Stavropol Davlat Agrar universiteti, Tomsk politexnika universiteti, Sankt-Peterburg texnika universiteti, Moskva elektron mashinalar instituti (texnika universiteti), Perm davlat universiteti, Moskva davlat universiteti, Fanlar akademiyasining Novosibirsk bo'limi va boshqalar, Gidromexanika instituti, Ukraina milliy fanlar akademiyasi, S.P. Timoshenko nomidagi mexanika instituti (Ukraina), Oksford universiteti (Angliya), Kaliforniya universiteti (AQSh), Florida universiteti (AQSh), Illinoys universiteti (AQSh), Kornelya universiteti (AQSh), Texas universiteti (AQSh), R.Gandi nomidagi texnika universiteti (Hindiston), Texnologik universitet (Hindiston), Tehron universiteti (Eron), Belarus davlat universiteti (Belorussiya), A.Yassaviy nomidagi Qozoq-turk Xalqaro universiteti (Qozog'iston). Ushbu mamlakatlarning tadqiqot markazlarida turli xil konstruksiyalardagi dinamik jarayonlarni o'rganishga e'tibor qaratilgan.

Dunyo olimlari tomonidan yangi tamoyilli mashina va mexanizmlar konstruksiyalarini, nazariy asoslarini hamda ularni strukturaviy va dinamik hisoblashning maqbul usullarini ishlab chiqish hamda mustahkamligini ta'minlash, energiya va resurstejamkor texnologik qurilmalar yaratish kabi dolzarb masalalarni hal etish borasida bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Mahsulot ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, texnika va texnologiyalarni yangi turlarini yaratish, energiya va resurstejamkor texnologiyalarni amaliyotga joriy etish, jumladan, tayanchlarda o'rnatilgan vallar konstruksiyasi, ularda hosil bo'ladigan dinamik jarayon samaradorligini oshirishga oid olib borilgan ilmiy-tadqiqotlar asosida natijalar olingan. MDH olimlaridan I.I.Artobolevskiy, K.V.Frolov asarlarida va mashina va mexanizmlar nazariyasi bo'yicha Xalqaro Federatsiya (IFTToMM) qarorlarida mashinalar, mexanizmlarning klassik va zamonaviy nazariyasi hamda

umumiy mashinasozlik oldida turgan muammolar, ularni hal etish yo'llari keng yoritilgan. N.I.Levitskiy, R.F.Nagayev, K.Sh.Xodjaye, L.N. Reshetov, F.L.Litvin, I.I.Vulfson, G.A.Timofeyev, S.Abduraimov va U.A.Djoldasbekovlar ratsional mexanizmlarning konstruksiyalarini yaratish bo'yicha tadqiqotlar olib borib, mexanizmlarning strukturaviy, kinematik va dinamik analizi, sintez qilish usullarini ishlab chiqilgan. X.X.Usmanxodjaye, K.A.Karimov, R.I.Karimov, Sh.P.Alimuxamedov, A.J.Djurayev, X.Turanov va A.Rizayevlar texnologik mashinalarda ishlatiladigan parametrlari o'zgaruvchan va boshqariladigan richagli, planetar, friksion mexanizmlarning nazariy asoslari va konstruksiyalarini ishlab chiqishgan. Maydalash nazariyasini rivojlantirishga maydalagichlarni konstruksiyasini takomillashtirish, hisoblash usullarini, jumladan, yuqori tezlikda maydalash agregatlarini ishlab chiqish bo'yicha S.Negmatov, P.A.Rebinder, G.S.Xodakov, V.I.Revniytsev, P.M.Sidenko, S.E.Andreyev, N.A.Hint, V.N.Blinichev, V.S.Bogdanov va boshqalar ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borgan. Ular rahbarligidagi jamoalar materiallarni maydalash muammolari bo'yicha katta hajmdagi ilmiy tadqiqotlar olib boradilar. Biroq, bu tadqiqotlar asosan bo'laklarga bo'lingan bo'lib, muayyan texnologik jarayonlar uchun individual o'ziga xos muammolarni hal qilishga qaratilgan. Minimal energiya sarfi bilan kerakli dispersiya mahsulotini olish uchun materialga ta'sir qilishining oqilona usulini tanlash bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar mavjud emas. Har xil turdagi val konstruksiyalarida kuch omillarining qiymatini aniqlash va inersiya kuchlarning ularning kattaligiga ta'sirini baholashning umumiy yondashuvi yo'q, bu o'rta va yuqori tezlikda ishlaydigan mashinalar uchun ayniqsa muhimdir. Ishchi organlarning maydalanayotgan materialga ta'sirining intensivligi va maydalash jarayonining samaradorligi o'rtasida hech qanday bog'liqlik yetarlicha o'rnatilmagan. Shu sababli, o'rta va yuqori tezlikda ishlaydigan val konstruksiyalarini kompleks o'rganish, ularda amalga oshirilgan jarayonlarning umumiy qonuniyatlarini izlash, majburiy energiya va maydalash samaradorligini hisobga olgan holda bunday birliklarni hisoblashning umumiy yondashuvlari juda dolzarb vazifa bo'lib ko'rinadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim mussasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Buxoro davlat texnika universitetida OT-Atex-2018-373 "Lazer nuri yordamida chigit va paxta urug'larini ajratish texnologik mashinalarining arra silindrli moslamasining ishchi qismining arra tishlarini kesish texnologiyasini ishlab chiqish" amaliy loyihasi (2018-2026 yy) doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi qovushoq-elastik tayanchlarga o'rnatilgan val konstruksiyasining dinamik xususiyatlari va dinamik kuchlanganlik - deformatsiya holatini topish metodikasi va algoritmini ishlab chiqish hamda sonli natijalar olib tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

qovushoq-elastik tayanchlarga o'rnatilgan valning dinamikasi va uni boshqarish masalalarining qo'yilishi, yechish metodikasi va algoritmini ishlab chiqish;

qovushoq-elastik tayanchlarga o'rnatilgan valning dinamik kuchlanganlik - deformatsiya holatini topish masalalarining qo'yilishi, yechish metodikasi va algoritmini ishlab chiqish;

qovushoq-elastik tayanchlarga o'rnatilgan deformatsiyalanuvchi val konstruksiyasining erkin tebranishlarini o'rganish metodikasi va algoritmini ishlab chiqish;

qovushoq-elastik tayanchlarga o'rnatilgan deformatsiyalanuvchi val konstruksiyasining majburiy tebranishlarida rezonans holatini o'rganish va boshqarish, kuchlanish-deformatsiya amplitudalarini baholovchi amplituda - chastotalar orasidagi bog'lanishni parametrlariga bog'liq holda topish;

qovushoq-elastik rotorlarning chiziqli majburiy tebranishlari va harakatni boshqarish algoritmlarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida deformatsiyalanuvchan rotatsion vallar va tayanch konstruksiyalari, shuningdek, koaksial rotorlar olingan.

Tadqiqot predmeti dinamik yuklanishlar ta'sirida bo'lgan va qovushoq-elastik tayanchlarga o'rnatilgan deformatsiyalanuvchan val materiallarning reologik xossalarini e'tiborga olgan holda dinamik kuchlanganlik-deformatsiya holati va kritik tezligini topish nazaryasini hamda yechish usullarini rivojlantirish tashkil etildi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida nazariy mexanika, deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasi va qurilish mexanikasi usullaridan, hisoblash matematikasi, matematik modellashtirish, xususiy hosilali differensial tenglamalarni yechish uchun "muzlatish", o'zgaruvchilarni ajratish, Gauss, Laplas va chekli elementlar usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk marta qovushoq-elastik tayanchlarga o'rnatilgan val dinamikasi masalalari qovushoq-elastiklik nazariyasining mumkin bo'lgan ko'chishlar prinsipi va Lagranjning ikkinchi tur differensial tenglamalariga asoslanib matematik qo'yilgan, Laplasning integral almashtirishlari, "Muzlatish", Gauss va Myuller usullari hamda servobog'lanishlar nazariyasi asosida masalalarni yechish metodikasi va algoritmi ishlab chiqilgan;

rotorning o'q bo'yicha ko'chish amplitudasining chastotaga bog'liq o'zgarishi tayanchlar qovushoqlik parametrlariga bog'liq bo'lishi hamda gorizontaal yo'nalishdagi ko'chish amplitudasi vertikal o'q yo'nalishidagi tebranishlar amplitudasidan 25% gacha ko'p bo'lishi topilgan;

qovushoq-elastik tayanchlarga o'rnatilgan dissipativ bir jinsli bo'lmagan deformatsiyalanuvchi val konstruksiyasining erkin tebranishlar chastotasi haqiqiy va mavhum qismlarining tayanch qovushoqlik amplitudasiga kuchli, qolgan (a, b) parametrlariga esa kuchsiz (1-2%) bog'liq bo'lishi dispersion munosabatlar asosida topilgan;

qovushoq-elastik tayanchlarga o'rnatilgan dissipativ bir jinsli bo'lmagan deformatsiyalanuvchi val konstruksiyasining kritik tezliklarini yuqori chastotalarda ro'y berishi mumkinligi, dissipativ bir jinsli mexanik sistema uchun esa faqat past chastotalarda ro'y berishi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

mavjud rotatsion vallarning ishlash muddatlari SOLIDWORKS dasturida tekshirilgan hamda ishlab chiqarishda foydalanish holatiga 95-97 % mos ekanligi aniqlangan;

SOLIDWORKS dasturida rotatsion vallarning konstruktiv o'lchamlariga

o'zgartirish hisobiga uning egilishi va yuklanishlarining kamayishi aniqlangan;
rotatsion maydalash mashinalarining yuklanishlarini kamaytirish usullarini ishlab chiqilgan;

markazdan qochma usulda rotatsion vallarni ishlab chiqarishni mahalliyashtirishda quyma tarkibi va ishlov berishning nazariy asoslari belgilangan;

rotatsion vallarni ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan dinamik parametrlar asosida val konstruksiyasini yangi turini ishlab chiqarish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

mahalliy ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish uchun "Buxoro mexanika ta'mirlash zavodi" AJda quyma tarkibidagi metallarning optimal tarkibi aniqlandi;

rotatsion vallarni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yilish natijasida metall sarfi 2-6 % ga kamaygan;

metall sarfini kamayishi (vallarning massasi kamayishi) natijasida rotatsion vallar hamda harakatlantiruvchi yuritmalarning ishlash muddatlari 12,5-14,5 % ga ortgan;

rotatsion vallarga tushadigan yuklanishlarni kamaytirishning nazariy asoslarini ishlab chiqishda egilishni (deformatsiyalanishni) valning ichki diametriga bog'liqligi matematik yechimi aniqlangan;

Tadqiqot natijalarning ishonchliligi. Chegaraviy shartlarning korrekt qo'yilishi, keltirib chiqarilgan matematik ifodalarning qat'iyligi, asoslangan yechish usullaridan tizimli foydalanilganligi, yechimlarning aniqliligin baholashda boshqa tadqiqotchilar yechimlari bilan taqqoslanganligi va ularning natijalariga mos tushganligi hamda amaliyotga joriy qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarning ilmiy ahamiyati sifatida qovushoq-elastik tayanchlarga o'rnatilgan val konstruksiyasining dinamikasi nazariyasini rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shish hamda takomillashtirish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati garmonik va noturg'un yuklanishlar ta'sirida qovushoq-elastik tayanchlarga o'rnatilgan vallning kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holatini baholashning yangi qonuniyatlarini o'rganish imkonini berishi hamda ishlab chiqilgan usul va hisoblash dasturlari val tebranishi masalalarini yechishga va tadqiq qilishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Qovushoq-elastik tayanchlarga o'rnatilgan valning dinamikasi xususiyatlari va dinamik kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holati bo'yicha olingan natijalar asosida:

dissertatsiyada ishlab chiqilgan qovushoq-elastik tayanchlarga o'rnatilgan valning yuklanishlarini kamaytirish usullaridan "Buxoro mexanika ta'mirlash zavodi" AJda rotatsion vallarni ishlab chiqarishda quyma tarkibining optimal parametrlarini tanlashda foydalanilgan (O'zbekiston Oziq-ovqat sanoat uyushmasining 04.06.2025 yildagi №04-60/06-25 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, metall sarfi 2-6 % ga kamaygan, harakatlantiruvchi yuritmalarning ishlash muddatlari 12,5-14,5 % ga ortgan, energiya sarfi 11-13% ga kamayishiga erishilgan;

qovushoq-elastik tayanchlarga o'rnatilgan val konstruksiyasining kritik tezligini aniqlash usullaridan Buxoro muhandislik-texnologiya institutida 2024

yilda bajarilgan “Po‘lat materiallarini yeyilishga va korroziyabardoshligini oshiruvchi nanokompozitli metall qoplama bilan qoplash texnologiyasini yaratish” nomli amaliy loyihada foydalanilgan (O‘zbekiston Oziq-ovqat sanoat uyushmasining 04.06.2025 yildagi №04-60/06-25 sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, val konstruksiyasini sanoat miqyosida ishlab chiqarishga qo‘llash bo‘yicha deformatsiyalanuvchan valning yuritmalari uchun kinematik va dinamik parametrlarining chegara qiymatlari aniqlanganib, tayanchlarda ishlatiladigan podshipniklarning seriyalari kichraytirilib optimallashtirilgan;

qovushqoq-elastik tayanchlarga o‘rnatilgan vallarda energiya intensivligini ta‘minlovchi konstruksiyalardan I.Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti ilmiy laboratoriyasida don mahsulotlarini maydalashda ishlatiladigan rotatsion vallarning quyma tarkibini aniqlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Oziq-ovqat sanoat uyushmasining 04.06.2025 yildagi №04-60/06-25 sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, aniqlangan material tarkibiga asosan bug‘doyni maydalash jarayonida ishlatiladigan vallarning qattiq qatlami 8620 AISI 8620 markali ligerlangan po‘lat bo‘lishi va sapfa qismi materialinig optimal parametrlari topilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 23 ta ilmiy ish chop etilgan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta maqola, jumladan, 5 tasi Respublika va 6 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 116 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida dissertatsiya tadqiqotining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, predmeti va ob‘yekti shakllantirilgan. Ilmiy tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan. Bundan tashqari, olingan natijalarning ishonchliligi asoslanib, ularning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etish, ishning aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Qovushqoq-elastik tayanchlarga o‘rnatilgan valning dinamikasi xususiyatlari va dinamik kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holatini o‘rganish bo‘yicha adabiyotlar tahlili”** deb nomlangan birinchi bobida elastik va qovushqoq-elastik tayanchlarga o‘rnatilgan val dinamikasini o‘rganishga bag‘ishlangan adabiyotlar tahlili keltirilgan. Tahlillar asosida quyidagi xulosalar chiqarilgan:

1. Adabiyotlar tahlilidan kelib chiqadiki, valli konstruksiyalarni mexanik sistema sifatida nazariy o‘rganishga katta e‘tibor qaratilmagan. Qovushqoq-elastik

tayanchga o'rnatilgan, erkinlik darajasi chekli bo'lgan mexanik sistema (tayanch va val)ning dinamikasini, ya'ni valli mexanik sistemalar dinamikasini nazariy va amaliy o'rganish zarur.

2. Qovushoq-elastik tayanchlarga o'rnatilgan, erkinlik darajasi chekli bo'lgan mexanik sistema (tayanch va vall)ni dissipativ bir jinsli bo'lmagan mexanik sistema sifatida qarash bu sohada yangi yo'nalishlar ochish mumkinligi kelib chiqadi.


Dissertatsiyaning **“Qovushoq-elastik tayanchlarga o'rnatilgan val dinamikasi, uni boshqarish va dinamik kuchlanganlik- deformatsiyalanganlik holati masalalarining qo'yilishi, yechish metodikasi va algoritmi”** deb nomlanuvchi ikkinchi bobida qovushoq-elastik tayanchlarga o'rnatilgan val (1-rasm) ning dinamikasi masalalarining qo'yilishi, yechish metodikasi va algoritmi keltirilgan. Bob besh paragrafdan iborat. Aylanma harakatda bo'lgan rotor va uning asosiy elementi bo'lgan valning aylanma harakati jarayonidagi tebranishi ikki xil ish rejimi: erkin va majburiy tebranishlari qaralgan.

Faraz qilaylik, N ta qattiq, K ta deformatsiyalanuvchi qovushoq- elastik rotor sistemasidan tashkil topgan mexanik sistema berilgan bo'lsin. Bular S ta tayanch elementlardan tashkil topgan bo'lsin, ulardan S₁ tasi deformatsiyalanuvchi podshipniklar va S₂ tasi massasiz deformatsiyalanuvchi element (prujina) lardan tashkil topgan mexanik sistema berilgan bo'lsin (1-rasm). Masalaning qo'yilishida mumkin bo'lgan ko'chish prinsipidan foydalanamiz. Bunga ko'ra, mexanik sistemaga ta'sir etuvchi aktiv, passiv va inertsia kuchlarining sistemaning har qanday virtual ko'chishlarida bajargan ishlari variatsiyalarining yig'indisi nolga teng:

$$\delta A = \delta A_{\sigma} + \delta A_I + \delta A_F = 0, \quad (1)$$

bu yerda,

$$\begin{aligned} \delta A_{\sigma} &= -\sum_{n=1}^{S_2} \int_{V_n} \sigma_{ij} \delta \varepsilon_{ij} dV - \sum_{e=1}^{S_1} \Gamma_e \delta \Delta e, \\ \delta A_I &= -\sum_{n=1}^{S_a} \int_{V_n} \rho_u \frac{\partial^2 \bar{u}_n}{\partial t^2} \delta \bar{u}_n dV - \sum_{k=1}^N m_k \frac{d^2 \bar{u}_n}{dt^2} \delta \bar{u}_k - \sum_{k=1}^N I_k \frac{d\bar{\omega}_k}{dt^2} \delta \varphi_k \bar{l}, \bar{\omega}_k = \frac{d\varphi_k}{dt} \bar{l} \\ \delta A_F &= -\sum_{n=1}^{S_2} \int_{V_n} \rho_n \bar{f} \delta \bar{u}_n dV + \sum_{n=1}^{S_1} \int_{V_n} \bar{f}_n \delta \bar{u}_n dV + \sum_{n=1}^N \bar{F}_n \delta \bar{u}_n + \sum_{k=1}^N \bar{m}_k \delta \bar{\varphi}_k \end{aligned}$$



1-rasm. Rotorli mexanik sistema

Agar yuqorida keltirilgan mexanik sistemada massali deformatsiyalanuvchi element yupqa qobiqlardan iborat bo'lsa, u holda (1) tenglamaga qo'shimcha bajarilgan ishlar quyidagicha bo'ladi

$$\delta A_{\sigma} = -\int_V \sigma_{ij} \delta \varepsilon_{ij} dV, \delta A_a = -\sum_{l'=1}^{L'} \sigma_{l'} \cdot \delta \varepsilon_{l'},$$

$$\delta A_m = -\rho h \int_{\Omega} \bar{U}(X_1, X_2, t) \cdot \delta \bar{U} d\Omega - \sum_{q=1}^Q M_q \bar{U}(X_1^q, X_2^q, t) \delta \bar{U}.$$

bu yerda, ρ , h -qobiqlarning zichligi va qalinligi, M_q - q -biriktirilgan massa, L' -deformatsiyalanuvchi tayanchlar soni, Q -osilgan massalar soni, V , Ω -qobiqlar hajmi va sirti yuzasi, σ_{ij} , ε_{ij} - kuchlanishlar va deformatsiya komponentalari, σ_1 , ε_1 - mos ravishda l' -chi deformatsimlanuvchi tayanchdagi kuchlanishlar va deformatsiyalar, δ - umumlashgan ko'chish variatsiyasi.

Mexanik tizim elementlari uchun chiziqli kuchlanish σ_{ij} va deformatsiya ε_{ij} larning o'zaro bog'liqligi irsiy Bolsman-Volter munosabatlarini qanoatlantiradi:

$$\sigma_{ij} = E_{0ij} \left(\varepsilon_{ij} - \int_a^t R_{ij}(t - \tau) \varepsilon_{ij}(\tau) d\tau \right), \quad (2)$$

($a = \{0$ -erkin va nostatsionar majburiy tebranishlarda, $-\infty$ -turg'un tebranishlarda)

bu yerda, σ_{ij} -kuchlanishlar tenzori, ε_{ij} -deformatsiya tenzori, E_{0ij} -oniy elastiklik moduli, $R_{ij}(t - \tau)$ -relaksatsiya yadrosi. Relaksatsiya yadrosi sifatida kuchsiz singulyar Rjanitsin-Koltunov yadrosi $R_{ij}(t) = A_{ij} e^{-\beta_{ij} t} \cdot t^{\alpha_{ij}-1}$ (A_{ij}, α_{ij} va β_{ij} - o'lchamsiz parametrlar) va Rabotnov yadrosi olingan:

$$\tilde{E}_k = E_k(1 - \Gamma_k^*); \tilde{\nu}_k = \nu_k + \frac{1-2\nu_k}{2} \Gamma_k^* \quad \Gamma_k^* f(t) = m_k \int_{-\infty}^t \mathfrak{D}_{-1/2}^{(k)}(-\beta_k, t - \tau) f(\tau) d\tau. \quad (3)$$

bu yerda, E_k , ν_k -Yung moduli va Puasson koeffitsiyentining oniy qiymatlari, m_k , β_k —material parametrlari, $f(t)$ - vaqtning ixtiyoriy funksiyasi. Integral operator yadrosi sifatida Rabotnovning kasr-eksponensial funksiyasini ishlatamiz:

$$m_k \mathfrak{D}_{-1/2}^{(k)}(-\beta, t) = m_k t^{-1/2} \sum_{j=0}^{\infty} \frac{(-\beta_k)^j t^{j/2}}{\Gamma[(j+1)/2]}$$

Faraz qilaylik, deformatsiyalanuvchi elementlarning reologik xossalarini tavsiflovchi irsiy munosabatdagi (2) integral kichik qiymatga ega. Integralning kichik qiymatiga ega ekanligidan muzlatish usulini qo'llash imkoniyatiga ega bo'lamiz. Bu hol mexanik sistemadagi deformatsiyalanuvchi massasiz elementlar uchun quyidagi munosabatlarni olamiz

$$F_e = -\tilde{c}_e \Delta e = -c_e [1 - \Gamma_e^c(\omega_R) - i \Gamma_e^s(\omega_R)] \Delta e \quad (4)$$

Deformatsiyalanuvchi massaga ega bo'lgan jism uchun kuchlanishlar va deformatsiya orasidagi munosabat quyidagicha bo'ladi:

$$\sigma_{ij} = \lambda_n \varepsilon_{ni} \delta_{ji} + 2\bar{\mu}_n \varepsilon_{ni}, \quad S = S_1 + S_2, \quad n = 1, 2, 3, \dots, S,$$

$$\text{bu yerda, } \bar{\lambda}_n = \lambda_n [1 - \Gamma_{n\lambda}^c(\omega_R) - i \Gamma_{n\mu}^s(\omega_R)],$$

$$\Gamma_{\lambda, m}^c(\omega) = \int_0^{\infty} R_{\lambda, m}(\tau) \cdot \cos \omega \tau d\tau; \Gamma_{\lambda, \mu}^s(\omega) = \int_0^{\infty} R_{\lambda, \mu}(\tau) \sin \omega \tau d\tau$$

Δe - berilgan elementni siljishi, $\bar{C}_e, \sigma_{ij}, \varepsilon_{ij}$ - hajmi nolga teng bo'lmagan deformatsiyalanuvchi elementning bikrligi, kuchlanishi va deformatsiyasi; $\Gamma_e^c, \Gamma_e^s, \Gamma_{n\lambda}^c, \Gamma_{n\lambda}^s, \Gamma_{n\mu}^c, \Gamma_{n\mu}^s$ - i -chi yig'ilgan massali va n -chi tarqalgan parametrli element relaksatsiya yadrosining sinus va kosinus Fur'e tasvirlari, ω_R - kompleks chastotaning haqiqiy qismi.

Bu holda mexanik sistemaning differensial tenglamasi quyidagi ko'rinishni egallaydi:

$$\sum_{k=1}^{S_2} L_{jk} W_k - \sum_{k=1}^{S_2} \int_{-\infty}^t R_{jk}(t-\tau) L_{jk} W(\tau) d\tau \pm \rho_j \frac{\partial^2 W_j}{\partial t^2} = \pm \rho f_j e^{i\lambda t}, \quad (5)$$

bu yerda, W_j - j -chi massali element ko'chish vektori komponentlari, ρ_j - j -chi massali element zichligi, f_j - massali kuch amplitudasi, L_{jk} - fazoviy koordinatalar sistemasidagi differensial operator.

Majburiy tebranishlar garmonik yoki turg'un kuch ta'siri ostida yuz beradi

$$F(t) = F_0 e^{-i\lambda t}, \quad (6)$$

bu yerda, F_0 - tashqi yuklanish amplitudasi, λ - tashqi yuklanish chastotasi.

(5) tenglamalar sistemasining yechimini quyidagi ko'rinishga qidiramiz

$$\vec{u}_k(\vec{x}, t) = \vec{V}_k(x) e^{-i\omega t}, \quad (7)$$

bu yerda, ω - qidirilayotgan erkin tebranishlarning kompleks chastotasi. Agar mexanik sistemaning erkinlik darajasi chekli bo'lsa, u holda Lagranjning ikkinchi tur differensial tenglamasidan foydalanib, tebranishlarning integro-differensial tenglamasini olamiz

$$\sum_{k=1}^{6N} (a_{jk} \ddot{q}_k(t) + C_{jk} [q_k(t) - \int_{-\infty}^t R_{ck}(t-\tau) q_k(\tau) d\tau]) = f_j e^{-i\lambda t}, \quad j = 1, 2, \dots, 6N \quad (8)$$

bu yerda, a_{ij} - musbat aniqlangan kvadratik forma.

Erkin tebranishlar chastotasi o'rganilganda (8) tenglamaning o'ng tomoni nolga teng bo'ladi, u holda tenglamaning yechimi quyidagi ko'rinishda qidiriladi:

$$q_j = A_j e^{-i\omega t}, \quad j = 1, \dots, 6 \quad (9)$$

bu yerda, $\omega = \omega_R + i\omega_I$ - erkin tebranishlar chastotasi. Agar (9) yechimni (8) ga qo'ysak, bir jinsli algebraik tenglamalar sistemasini olamiz:

$$\sum_{k=1}^{6N} (\bar{C}_{jk}(\omega_R) - \omega^2 c_{jk}) A_k = 0, \quad j = 1, 2, \dots, 6N \quad (10)$$

Bir jinsli algebraik tenglamalar sistemasining noldan farqli yechimga ega bo'lish shartidan transcendent tenglamani olamiz

$$\det[-[M]\omega^2 + [\bar{C}(\omega_R)]] = 0. \quad (11)$$

(11) transcendent tenglama Myuller usuli yordamida yechiladi. Boshlangich qiymat sifatida konservativ masalaning yechimi olinadi.

Majburiy tebranishlarni ifodalovchi (8) differensial tenglamalar sistemasining yechimi quyidagicha izlanadi

$$q_j = A_j e^{-i\lambda t} \quad j = 1, \dots, 6N \quad (12)$$

bu yerda, A_j - kompleks amplituda. (12) yechimni (8) ga qo'yilsa, bir jinsli bo'lmagan algebraik tenglamalar sistemasini olamiz:

$$\sum_{k=1}^{6N} (C_{jk}(\lambda) - \lambda^2 a_{jk}) A_k = f_j. \quad (13)$$

(13) tenglamalar sistemi Gauss usuli bilan yechiladi.

Vallar egri chiziqli bo'lgani uchun ularning tenglamasi xususiy hosilali integro-differensial tenglamalar sistemi (XSIDTS) dan iborat bo'ladi:

$$\begin{aligned} \frac{\partial u}{\partial s} &= \frac{N}{E_0 F_0} + kv + \int_{-\infty}^t R_{0E}(t-\tau) \left(\frac{\partial u(s,\tau)}{\partial s} - kv \right) d\tau, \quad \frac{\partial u_b}{\partial s} = -\frac{M_b}{J_b E_0} + \int_{-\infty}^t R_{0E}(t-\tau) \frac{\partial u_b}{\partial s} d\tau, \\ \frac{\partial u_n}{\partial s} &= -\frac{M_n}{J_n E_0} + \int_{-\infty}^0 R_{0E}(t-\tau) \frac{\partial u_n}{\partial s} d\tau, \quad \frac{\partial u_t}{\partial s} = \frac{2M_t}{J_t E_0} (1 + \nu) + \int_{-\infty}^t R_{0E}(t-\tau) \frac{\partial u_t}{\partial s} d\tau, \\ \frac{\partial w}{\partial s} &= u_n - \nu \int_0^{s_0^+} k(s) \chi(s) ds, \quad \frac{\partial v}{\partial s} = u_b - ku + w \int_0^{s_0^+} k(s) \chi(s) ds, \end{aligned}$$

$$\begin{aligned}
\frac{\partial N}{\partial s} - kQ_n - \rho F \frac{\partial^2 u}{\partial t^2} + Q_{0t} e^{-iv_p t} &= 0, \quad \frac{\partial Q_n}{\partial s} + kN - Q_b \tau - \rho F \frac{\partial^2 v}{\partial t^2} + Q_{0n} e^{-iv_p t} = 0, \\
\frac{\partial Q_b}{\partial s} + Q_n \tau - \rho F \frac{\partial^2 w}{\partial t^2} + Q_{0b} e^{-iv_p t} &= 0, \quad \frac{\partial M_t}{\partial s} + M_n k - J_t \rho \frac{\partial^2 u_t}{\partial t^2} = 0, \\
\frac{\partial M_n}{\partial s} + M_t k - M_b \tau - Q_b l - J_n \rho \frac{\partial^2 u_n}{\partial t^2} &= 0, \quad \frac{\partial M_b}{\partial s} + M_n \tau - Q_n l_1 - J_b \rho \frac{\partial^2 u_b}{\partial t^2} = 0.
\end{aligned} \tag{14}$$

(14) - XSIDTS 12 noma'lumli 12 ta yopiq tenglamalar sistemasini tashkil etadi. Ular uchun sterjenning mahkamlangan chegarasida quyidagi shartlar qo'yiladi: $\vec{u}(u, v, w) = 0$, $\vec{u}_s(u_n, u_b, u_t) = 0$. Ikkinchi erkin turgan tomoniga kuch qo'yilganlik sharti qo'yiladi: $\vec{Q} = \vec{P}_0 e^{-iv_p t}$, $\vec{M} = \vec{T}_0 e^{-iv_p t}$. Bunda, \vec{P}_0, \vec{T}_0 - qo'yilgan kuch va moment vektorlarining amplitudalari. Qo'yilgan masalani yechishda boshlang'ich shartlar qo'yilmaydi, chunki o'rganiladigan jarayon turg'un.

Valga ta'sir etuvchi kuchlar $q = 0$; $P = P_0 e^{-ivt}$, $-\infty < t < \infty$ bo'lsin, bu yerda, P_0 - kuch amplitudasi, v -tebranishlarning majburiy chastotasi.

Majburiy turg'un tebranishlar uchun XSIDTS (13) ning yechimini quyidagi ko'rinishda izlaymiz:

$$\begin{aligned}
(N, Q_n, Q_b, M_t, M_n, M_b, u, v, w, u_t, u_n, u_b)^T &= \\
(\bar{N}, \bar{Q}_n, \bar{Q}_b, \bar{M}_t, \bar{M}_n, \bar{M}_b, \bar{u}, \bar{v}, \bar{w}, \bar{u}_t, \bar{u}_n, \bar{u}_b)^T e^{-iv_p t}, & \tag{15}
\end{aligned}$$

bu yerda, $\bar{N}, \bar{Q}_n, \bar{Q}_b, \bar{M}_t, \bar{M}_n, \bar{M}_b, \bar{u}, \bar{v}, \bar{w}, \bar{u}_t, \bar{u}_n, \bar{u}_b$ - tebranishlar amplitudasi, s - egri val yoki sterjen o'q kesim formasining funksiyasi, haqiqiy kattalik. (15) ni (13) ga qo'ysak, kompleks koeffitsiyentli oddiy differensial tenglamalar sistemasini olamiz:

$$\frac{d\vec{z}}{d\zeta} |R_m| = [B]\vec{z} + \Delta\vec{P}.$$

Integralni muzlatish usulini qo'llamasdan analitik hisoblanadi. Davriy majburiy tebranishlar masalasi qaralganda boshlang'ich shart qo'yilmaydi va muzlatish usuli qo'lanilmaydi. Bu (14) tenglamaning yechimi quyidagicha bo'ladi:

$$\vec{z} = \vec{C} e^{-\int_{\zeta_0}^{\zeta_1} \frac{([B][R_m]^{-1} - \omega^2[M])}{[R_m]} d\zeta} \left[\int_{\zeta_0}^{\zeta_1} \Delta P(\zeta) e^{\int_{\zeta_0}^{\zeta_1} ([B][R_m]^{-1} - \omega^2[M]) d\zeta} d\zeta \right].$$

Nol boshlang'ich holatlarga nisbatan tizimning tebranishlarini so'ndirish talab qilinganligi sababli, tizimning harakatini servo bog'laishlar tomonidan boshqarishni ko'rib chiqamiz. Aytaylik sistemaning harakati quyidagi servobog'lanishlar yordamida chegaralangan bo'lsin:

$$\Phi_\alpha(t, q_1, \dots, q_n) = 0, \quad (\alpha=1, \dots, a) \tag{16}$$

bu yerda, q_1, q_2, \dots, q_n -umumlashgan koordinatalar. Ma'lumki, mexanik sistemada (16) munosabatlar bilan birgalikda quyidagi munosabatlar ham bajaradi:

$$\Phi_\alpha^*(t, q_1, \dots, q_n, \eta_1, \dots, \eta_\alpha) = 0 \quad (\alpha=1, \dots, a) \tag{17}$$

bu yerda, $\eta_1, \eta_2, \dots, \eta_\alpha$ - (17) tizimning servobog'lanishlardan bo'shatilishini tavsiflovchi erkin parametrlar. U holda mexanik tizimning Lagranj ko'paytuvchili harakat tenglamalarini quyidagicha yozish mumkin:

$$\frac{d}{dt} \left(\frac{\partial T}{\partial \dot{q}_i} \right) - \frac{\partial T}{\partial q_i} = \frac{\partial \Pi}{\partial q_i} + Q_i + \lambda_i, \quad (i=1, \dots, n) \tag{18}$$

bu yerda, T, Π - mexanik sistemaning kinetik va potensial energiyasi, Q_i - umumlashgan kuch, λ_i - sevro bog'lanish reaksiya kuchlari.


Dissertatsiyaning “**Qovushoq-elastik tayanchga o'rnatilgan valning erkin va majburiy tebranishlari**” deb nomlangan uchinchi bobida rotorli sistema (yoki deformatsiyalanuvchi val sistemasi) ning kritik tezligini topish va tebranishlar formasini qurish masalasi qaralgan.

Qovushoq- elastik tayanchlarga o'rnatilgan diskli valning tebranishini ko'ramiz (2-rasm). Faraz qilamiz, val diskning O nuqtasidan o'tsin. Diskning birklik markazi O nuqtasidan o'tsin. Bu mexanik sistemaning harakat differensial tenglamalari Lagranjning ikkinchi tur differensial tenglamalaridan olinadi:

$$\begin{aligned} M(l_1\ddot{y}_2 + l_2\ddot{y}_1) + \bar{c}_1ly_1 + \bar{c}_2ly_2 &= Mel\omega^2 \cos \omega t, \\ M(l_1\ddot{z}_2 + l_2\ddot{z}_1) + \bar{c}_1lz_1 + \bar{c}_2lz_2 &= Mel\omega^2 \sin \omega t, \\ A\omega(\dot{y}_2 - \dot{y}_1) - B(\dot{z}_2 - \dot{z}_1) + \bar{c}_1l_1lz_1 + \bar{c}_2l_2lz_2 &= (A - B)\delta l\omega^2 \sin(\omega t - \varepsilon), \\ A\omega(\dot{z}_2 - \dot{z}_1) - B(\dot{y}_2 - \dot{y}_1) + \bar{c}_1l_1ly_1 + \bar{c}_2l_2ly_2 &= (A - B)\delta l\omega^2 \cos(\omega t - \varepsilon), \end{aligned} \quad (19)$$

bu yerda, l_1 va l_2 -diskdan tayanchlarga bo'lgan masofalar, δ - disk C nuqtasidan o'tgan o'qning aylanish o'qidan kichik og'ish burchagi, l - ikkita masofaning yig'indisi, $\bar{c}_kf(t) = c_{0k} \left[f(t) - \int_0^t R_{ck}(t - \tau)f(\tau)d\tau \right]$ -operator formadagi birklik koeffitsiyenti ($k = 1,2$), c_{0k} - oniy qovushoqlik moduli, $f(t)$ - vaqtning ixtiyoriy funksiyasi. (19) tenglamadagi integral osti ifodalarni vaqt bo'yicha sekin o'zgaradi deb faraz qilib, “muzlatish” usulini qo'llaymiz:

$$\bar{c}_kf(t) = c_{0k} [1 - \Gamma_{ck}^c(\omega_R) - i\Gamma_{ck}^s(\omega_R)].$$



2-rasm. Qovushoq- elastik tayanchlarga o'rnatilgan diskli val

Agar majburiy turg'un tebranish masalasi qo'yilsa, u holda (19) integro-differensial tenglama o'rnida kompleks koeffitsiyentli oddiy ikkinchi tartibli differensial tenglamalar sistemasini olamiz

$$\begin{aligned} M(l_1\ddot{y}_2 + l_2\ddot{y}_1) + \bar{c}_1ly_1 + \bar{c}_2ly_2 &= Mel\omega^2 \cos \omega t, \\ M(l_1\ddot{z}_2 + l_2\ddot{z}_1) + \bar{c}_1lz_1 + \bar{c}_2lz_2 &= Mel\omega^2 \sin \omega t, \\ A\omega(\dot{y}_2 - \dot{y}_1) - B(\dot{z}_2 - \dot{z}_1) + \bar{c}_1l_1lz_1 + \bar{c}_2l_2lz_2 &= (A - B)\delta l\omega^2 \sin(\omega t - \varepsilon), \\ A\omega(\dot{z}_2 - \dot{z}_1) - B(\dot{y}_2 - \dot{y}_1) + \bar{c}_1l_1ly_1 + \bar{c}_2l_2ly_2 &= (A - B)\delta l\omega^2 \cos(\omega t - \varepsilon), \end{aligned} \quad (20)$$

(20) sistemaning yechimini quyidagi ko'rinishda izlaymiz

$$\begin{aligned} y_1 &= a_1 \cos \omega t + b_1 \sin \omega t, & y_2 &= a_2 \cos \omega t + b_2 \sin \omega t, \\ z_1 &= b_3 \cos \omega t + a_3 \sin \omega t, & z_2 &= a_4 \sin \omega t + b_4 \cos \omega t. \end{aligned} \quad (21)$$

Agar (21) ni (20) ga qo'ysak va qiyin bo'lmagan shakl almashtirishlardan keyin quyidagi algebraik tenglamalar sistemasini olamiz

$$[\Delta]\{\Phi\} = \{P\},$$


bu yerda,

$$[\Delta] = \begin{bmatrix} m_1l_1\omega & m_2l_2\omega & (B - A)\omega^2 - \bar{c}_1l_1l & -(B - A)\omega^2 + \bar{c}_2l_2l \\ (B - A)\omega^2 - \bar{c}_1l_1l & -(B - A)\omega^2 + \bar{c}_2l_2l & -m_1l_1\omega & m_2l_2\omega \\ Ml_2\omega^2 + \bar{c}_1l & -Ml_1\omega^2 + \bar{c}_2l & m_1\omega & m_2\omega \\ -m_1\omega & -m_2\omega & Ml_2\omega^2 + \bar{c}_1l & -Ml_1\omega^2 + \bar{c}_2l \end{bmatrix}$$

